

TO`Y MAROSIMLARINI TEJAMKORLIK BILAN O`TKAZISHDA NURONIYLARNI TUTGAN O`RNI

Zoir Axmedov¹

Mustaqil tadqiqotchi: Jizzax viloyati, Sh. Rashidov tumani 49-maktab

Yoshlar masalalari va ma'naviyat ishlar

bo'yicha direktor o'rinbosari.

13-maktab direktor o'rinbosari Fotima Qosimova

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10467025>

Annotatsiya: Mustaqillika erishganimizdan so'ng davlatimiz tomonidan nuroniylarga berilayotgan e'tibor hamda o'zbek davlatchiligi tajribasidan kelib chiqib, keksalar duosi albatta qabul bo'lajagiga ishonib, ularni hurmatini joyiga qo'yib, bugungi globallashuv davrida Yangi O'zbekistonda yoshlar tarbiyasida ularning hayotiy tajribasidan foydalanib, aytgan o'gitlariga amal qilib, jamiyat va davlat boshqaruvida ularning o'rnini oshib borishini ko'rsatish.

Kalitso'zlar: Nuroniylar maslahati, mahalla, to'ylar haqida jadidlar fikrlari, hukumat qarorlari, tejamkorlik haqida Qur'oni karim va hadis ilmlardagi muqaddas so'zlar, nikoh haqida tarixiy shaxslar o'gitlari.

1 KIRISH

O'tgan asr boshlarida milliy madaniyatimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shgan jadidlar millatni yuksaltirishning asosiy omili xalq turmush tarzi, dunyoqarashini o'zgartirish, odamlarni zamonaviy fikrlashga o'rgatishdir, degan xulosaga kelishgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 fevraldagi PQ-4602-son "**O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida**"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 fevraldagi "**Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida**"gi PF-5938-sonli Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmonning 11-bandiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi hududiy bo'linmalari boshliqlarining keksalar va faxriylar ishlari bo'yicha o'rinbosarlari-nuroniylar jamoatchilik kengashlari raislari etib belgilangan. Farmon ijrosini ta'minlash maqsadida **O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 23 maydagi "Qoraqlpog'iston Respublikasi, viloytlar,**

Toshkent shahar hamda tuman va shaharlarda nuroniylar jamoatchilik kengashlarining tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 326-sonli qarori bilan viloyatlar, shaharlar va tumanlarda nuroniylar jamoatchilik kengashlari tashkil etilgan. Ushbu qarorda va tasdiqlangan namunaviy Nizomda nuroniylar jmoatchilik kengashlarining asosiy vazifalari va yo'nalishlari, vakolatlari va majburiyatlari hamda ularning ishini tartibli tashkil etish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan.

Adabiyotlar tahlili. Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy kabi ulug' ajdodlarimiz ta'lim-tarbiya, axloq-odob haqida qanchalik qayg'urgan bo'lishsa, milliy qadryatlarimizning ajralmas qismi bo'lgan to'y haqida ham shu qadar kuyunib yozishgan. Ma'rifatparvar bobolarimiz dabdabali to'ylarni madaniyatsizlik, ma'naviy qashshoqlik belgisi, deb bilishgan. Bir so'z bilan aytganda, to'y-ma'rakalar mavsumi bugun ham **nuroniylar aralashuvisiz o'tmaydi.**

O'zbek adibi, tarixchi va tilshunos, ma'rifatparvar shoir **Isxoqxon To'ra Junaydullaxo'ja o'g'li Ibrat** "Hali ham biz o'z dinimizga harakat qilmay, aqcha topsak, ho-yu havas, ovloq to'ylarga o'n ming so'm behuda isrof qilamiz",

{1,3} deya xalqni mashaqqat bilan topilgan mablag'ni o'tkinchi havasga emas, **farzandlarning ilm-hunar egallashi uchun ishlatishga da'vat etgan**. Jadid adabiyotining yetuk vakili Abdulhamid Cho'lpon "... ilgari vaqtlarda bundog' behuda isroflilik to'ylar ham bo'lmasdi..." {1,3} deya "Sadoi Farg'ona" gazetasida xalqni ortiqcha mol-mulkni millat ravnaqi yo'lida sarflashga chaqirgan. Turkiston musulmonlari s'ezdida "**Sho'roi Islomiya**" tashkilotining to'y va ma'rakalarni tartibga solish to'g'risidagi qarori muhokama qilingan. **1917 yil 27 aprelda "Najot"** gazetasida chop etilgan mazkur qarorda sovchilik, fatir, kichik to'y, qozon qaytarish, yuz ko'rar, hayitda mol yoyib, kelin ko'rmoq, sandiq to'la sarpo bermoq, mashinalarda ko'plab ko'rpa - yostiqlik, yuk yubormoq taqiqlangan. Bunga amal qilmaganlarga jarima solinib, qozilar orqali undirilishi bayon etilgan. **Demak**, yuz yil ilgari ham to'y-ma'raka va boshqa oilaviy tadbirlarni o'tkazishda muammolar bo'lgan. Dabdabali to'y orqali shuhrat qozonishni salbiy oqibatlari **Muqimiyning "To'y", "Iqonbachcha", Qodiriyning "To'y", "Baxtsiz kuyov", Shuhratning "Besh kunlik kuyov"** asarlarida, shuningdek, "Mahallada duv-duv gap", "Uchrashuv" kabi o'lmas filmlarda tanqid qilingan. **Ma'lumki, xalqimiz o'tmishda og'ir yillarni boshidan kechirgan**. Qanchalik qiynalmasin, boriga shukur qilib, sabr-qanoat bilan yashagan. Bugun yurtimiz tinch, yon atrofimizga boqsak, mudom yangilanish, bunyodkorlik shukuhini his etamiz. Shu aziz yurt ravnaqi yo'lida xizmat qilish, jamiyatda munosib o'rin topishga bo'lgan ishtiyoq tobora kuchayib boraveradi. Xo'sh, shunday sharoitda nima uchun yillar davomida toptan mablag'imizni **jadid bobolarimiz aytganidek**, farzandlar kamoliga emas, bir-ikki kunlik to'yga sarflashimiz kerak? **Bu haqda jurnalist Lobar Jalilova Toshkent viloyati bir guruh faollari bilan suhbatida haqida quyidagilarni keltiradi:** "Afsuski, oramizda "O'z pulimga to'y qilyapman, boshqalar aralashmasin" qabilida fikr yuritadigan kishilar ham yo'q emas. Ular bilan ko'proq tushuntirish ishlari olib borishdan erinmayapmiz, – deydi Toshkent viloyati Olmaliq shahar fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish kengashining diniy-ma'rifiy ishlar bo'yicha **bosh mutaxassisi Dilbar O'rinboeva**.

– Binobarin, dabdabali to'ylar oqibatida oilaviy ajrimlar ko'paymoqda. Masalan, shu yilning (2018) birinchi choragi davomida Bobur mahallasida **8 ta** oila ajralib ketdi. Shulardan birining sababini eshitsangiz, hayron qolasiz. O'rtahol oila farzandi bo'lgan o'g'il kelin tanlagan qimmatbaho oq libosni

olib bermagan. To'y esa bekor qilingan. Holbuki, yoshlar qonuniy nikohdan o'tib bo'lishgan edi. Bunday noxush holatlarning oldini olish maqsadida 7 may kuni Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filialida barcha mahalla raislari ishtirokida suhbat o'tkazildi". {2,3} **Demak**, inson hayotining mazmuni faqat to'y bilan belgilanmaydi. To'y kelgusida farovon, ahil va tinch-totuv yashash uchun qo'yiladigan ilk qadamdir. Hamma gap qanday oila barpo etishda. Bu esa, avvalo, dunyoqarashimiz va tafakkurimizga bog'liq masaladir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi va Senati Kengashlarining 2019 yil 14-sentyabrda "To'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlar o'tkazilishini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" gi **2736-III/QQ-592-III-sonli qo'shma qarorining tartibli o'tkazish bo'yicha komissiyalarning ishini yanada jonlashtirishda** nuroniylar jamoatchilik kengashlari ham faol ishtirok etmoqda. **Bu haqda** Toshkent shahar nuroniy jamg'armasi raisi, senator Rustam Kolonov quyidagilarni keltiradi. Jumladan; **"3 451 nafar yoshning nikoh to'ylari Nuroniylar maslahat kengashlari orqali ixcham tarzda o'tkazishga erishildi"**. {3,6} Bugungi kunda aholisining asosiy qismi musulmon bo'lgan davlatlarda, hatto neftga boy Yaqin Sharq mamlakatlarida ham qashshoqlik muammosi mavjud. Qashshoqlik boshqa musibatlar kabi Ollohning sinovi yo bandaning Yaratgan oldida maqomi ortishiga sabab yoki qilgan gunohlariga jazo bo'lishi mumkin. Biroq inson o'z-o'zidan qashshoqlashib qolmaydi. Bunga asosan, uning shariat ruknlariga amal qilmasligi yoki noz-ne'matlarni isrof qilishi sabab bo'ladi. Ushbu dolzarb masala necha o'n yillardan beri xalqimizning o'tkir muammolaridan biri bo'lib kelmoqda. XX asr boshida jadid bobolarimiz to'y-ma'rakalarimizdagi isrofgarchilik va dabda-babozlikning millatimizni ma'naviy tanazzul va qashshoqlikka yetaklaydigan illat ekani haqida kuyunib yozgan edi. Fikrimizni isboti sifatida: **"Ulug' ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiy millatimiz taraqqiyotiga to'g'anoq bo'ladigan ikki narsa bor: bu – to'y va azadir, deb ayni haqiqatni yozgan edi"**. {4, 3} Barcha zamonlarda ham to'y bo'lgan. Ammo otabobolarimiz me'yorga rioya etganlar, isrofgarchilikdan tiyilganlar. **Hozir ham keksalarimiz uchun tejamkorlik muhim taomil hisoblanadi**. Bunga tarixdan mashhur bir hadisni misol qilib keltiramiz. Bu haqda Qur'oni karimda:

“Englar, ichinglar, lekin isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymanglar. Zero, Alloh taolo isrof qilguvchilarni sevmagay”, {4,3} deb buyurilgan. To‘y tugagach, dasturxonda non ushoqlari sochilib yotganini ko‘rib, inson dilini xira qiladi. **Demak,** isrofgarchilik va manmanlik dinimiz talablariga ham zid. Ayrimlar bunga amal qilmayotgan ekan, aholi o‘rtasida tushuntirish ishlarini yanada kuchaytirish kerak. Afsuski, yillar o‘tsa-da, zamon o‘zgarib borayotgan bo‘lsa-da, milliy taraqqiyotimizga katta to‘siq va g‘ov bo‘lib kelayotgan bu illatga barham berish, to‘y-ma‘rakalarni ixcham, zamonaviy ko‘rinishda o‘tkazish o‘rniga, to‘ydan oldin va keyin bo‘ladigan kerakli-keraksiz tadbirlarni o‘ylab topish, dabda-babozlik qilib, haddan ziyod isrofgar-chilikka yo‘l qo‘yish holatlari tobora kuchayib bormoqda. Ibn Mas‘ud roziyallohu anhu Rasululloh sollallohu alayhi va sallamdan rivoyat qiladi: **“Tejamkor bo‘lgan (kishi) kambag‘al bo‘lmaydi” (Imom Ahmad, Ibn Abu Shayba va Bayhaqiy rivoyati).**{5,4} Hadis tarjimasidagi **“tejamkorlik”** so‘zi arabiy matnda “iqtisod” deb keltirilgan. Mazkur lafz **“sarf-xarajatda o‘rtacha yo‘l tutish, isrof ham, baxillik ham qilmay, me‘yorida sarflash”** ma‘nosini anglatadi. Amallar va holatlarning eng yaxshisi o‘rtachasidir. Shu jumladan, turmush uchun kerak bo‘ladigan narsalardagi sarfda ham o‘rtaliq faqat foyda va baraka keltirishini farzandlarimizga ko‘rsata bilishimiz kerak. Ba‘zilar tejamkorlikni baxillik bilan almashtirib, bu ikkisi orasida katta farq borligini anglamaydilar. **Keksalar oilalarni poydevori, hikmati, aql-tafakkuri, ziynati, toji-tarozi, kamtarlik,** samimiylilik, komillik, ibrat namunasi. Shu bois, keksalar oila iqtisodida jamg‘armaning o‘rni hisoblanadi. Keksalar oilaning jami puli, daromadlari va sarf-xarajatlari oila jamg‘armasini himoya qilish, o‘z o‘rnida sarflash manbayidir. Hozir tongga qadar davom etadigan nikoh bazmlariga deyarli barham berilgan. **Bu haqda Nuroniy gazetasi muxbiri Adiba Umarova quyidagilarni keltiradi:** “Ammo besh-olti yuz kishilik to‘yxonalarda ahvol o‘sha-o‘sha. Yaqinda ana shunday to‘ylarning birida bo‘lib, atrofni obdon kuzatdim. To‘y dasturxonini eng sara noz-ne‘matlar bilan bezatilgan. Qarindosh-urug‘, qo‘ni-qo‘shni chiroyli liboslarni kiygan. Faqat ma‘naviyat masalasida hali ham oqsayotganimiz ko‘rinib qolmoqda. Ochig‘i, ayrim xotin-qizlar, yoshlarni sarxush holatda ko‘rib, o‘zimni noqulay sezdim. Hatto kelin-kuyovni ham spirtli ichimlik ichishga majbur etishgani dilimni xira qildi”.{6,3}

Turmushning nozik tomonlariga nega e‘tibor bermayapmiz? Ichkilik oqibatida nogiron bolalar dunyoga kelayotgani hech kimga sir emas-ku! Shu o‘rinda, Amir Temur bobomizning purhikmat o‘g‘itlarini keltirib o‘tishni vaqti deb bildik: **“O‘g‘illarim, nabiralarim va yaqinlarimga biron tomchi sharob ichib, jufti haloliga yaqinlashishni ma‘n etdim. Sharobning ta‘sirida dunyoga kelgan farzand nasl-nasabning buzilishiga ta‘sir etgay, deb shu pokiza yo‘lni tutdim”,** yozib qoldirgan.

Albatta, har bir ota-onaning eng katta orzuniyati jondan aziz far-zandining baxtu iqbolini ko‘rishdir. Lekin bunga faqat dabdabali to‘y qilish, moddiy boylik to‘plash bilan erishib bo‘lmaydi. Bunga hayotda ko‘plab misollar keltirish mumkin. Fikrimizni isboti sifatida, Turkistonda XIX asr oxiri-XX asr boshlarida ilm-fan, ma‘naviyat sohasida katta muvaffaqiyatlarga erishildi. Bu muvaffaqiyatlarga erishishda jadidlarning o‘rni katta bo‘ldi. **Nusratulla Qudratilla qalamiga mansub “To‘y” asarida oilaviy va shaxsiy fojialar sababchisiga aylangan serchiqim ba‘zi urf-odatlar va an‘analar tanqid ostiga olindi.** Pyesada oila boshlig‘ining serhasham sunnat to‘yi uchun puli yetmay qolganida qarz olishga majbur bo‘lganligi va ko‘p o‘tmay to‘lovga layoqatsizligi oqibatida qarzdoming qamoqqa oliishi ko‘rsatilgan. Bu asar tarbiyaviy tomoni bilan xalqimiz ongida katta taasurot qoldirgan. Bunday bema‘niliklarga barham berib, millatimizga xos bo‘lgan an‘analarga qaytish choralarni ko‘rish, avvalo, to‘y sohiblari, qolaversa, keng jamoatchilikning vazifasi. **Ko‘pni ko‘rgan keksalarimiz, mahalla faollari, din peshvolarining sa‘y-harakatlari** bilan qiz yig‘inlari, kelin va sunnat to‘ylari oilaviy sharoitni hisobga olgan holda o‘tkazilishiga erishilmoqda.

Xulosa

Xulosa shuki, o‘zbek xonadoni to‘y bilan fayzli. Shunday xayrli ishni ixcham, ortiqcha dabdabavozlikdan xoli o‘tkazish uchun yuqoridan ko‘rsatma kutib o‘tirish shart emas. Mahalla faollari, **nuroniyalar, profilaktika nozirlari, posbonlar, maslahatchilar va keng jamoatchilik** mas‘uliyat bilan yondoshsa, yechimini kutib turgan ayrim muammolar hal bo‘ladi. Me‘yor va tartib bor joyda osoyishtalik hukmron. Maqsadimiz bitta hayotimizni yanada farovon, oilalarimizda, yurtimizni tinchlik, xotirjamlik va yurti obod qilishdir. Me‘yor bor joyda tartib bo‘ladi. Tartib esa osoyishtalik

mezonidir. Hayotimizda osoyishtalik hokim ekan,
oilalarimizda farovonlik, obodlik barq uraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

- [1] Nuroniy, ijtimoiy, ma'rifiy, ommabop gazeta. E-mail: nuroniy-gazeta@umail.uz nuroniy-gazeta@mail.ru Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani Isroiljon Sattarov mehnat faxriysi. "Dabdabali to'ylar chekinmoqda" 2018-yil 6-iyun, № 24(931). 3 b
- [2] 2. Nuroniy, ijtimoiy, ma'rifiy, ommabop gazeta. E-mail: nuroniy-gazeta@umail.uz nuroniy-gazeta@mail.ru Jurnalist Lobar Jalilova "Dabdabali to'ylarga hushimiz yo'q!-deyishmoqda olmalqlik onaxonlar" 2018-yil 30-may, № 23(930). 3 b
- [3] 3. Rustam Kolonov, Toshkent shahar nuroniy jamg'armasi raisi, senator "Keksalik va hozirgi zamon: mavjud holat, rivojlanish tendensiyalari va istiqboldagi muammolar" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami (13-oktabr 2022-yil) "Toshkent shahrida nuroniylarni qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilgan ishlar" "Mahalla va oila nashryoti" T; 2022. 6 b.
- [4] 4. Nuroniy gazetasi E-mail: nuroniy-gazeta@umail.uz nuroniy-gazeta@mail.ru 2018-yil 3-mart, № 10 (917). Respublika "Mahalla" xayriya jamoat fondi va "Nuroniy" jamg'armasi faollarining murojaati. 3 b
- [5] 5. Nuroniy ijtimoiy, ma'rifiy, ommabop gazeta E-mail: nuroniy-gazeta@umail.uz nuroniy-gazeta@mail.ru № № 52(959) 18.12.2018 Mehriniso Saidjalolova, Xadichai Kubro ayol-qizlar o'rta maxsus Islom bilim yurti Axborot-resurs markazi rahbari. "Tejamkorlikda farzandlarimizga o'rnak bo'laylik" 4 b.
- [6] 6. Nuroniy gazetasi E-mail: nuroniy-gazeta@umail.uz nuroniy-gazeta@mail.ru 2018-yil 3-mart, № 10 (917) Adiba Umarova "Mahallada ""duv-duv"" gap bo'lishi shartmi? 3 b